

21-oktabr - O'zbek tili bayrami kuni

2023 21 Oktabr

Hurmatli aviaxodimlar!

Sizlarni va barcha yurtdoshlarimizni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz to'rt yilligi va 21-oktabr - O'zbek tili bayrami kuni bilan chin qalbidan tabriklayman.

Ona tilimiz millatimiz tafakkurining bebaho xazinasidir. Ijtimoiy hayotimizda eng muhim vosita sifatida tilimizning ahamiyati juda katta. Ona tili millatni millat ekanligini, birligini, hamjihatligini va o'zligini anglatib turadi. Shunday ekan, ona tilimizni e'zozlash, munosib hurmat hamda ehtirom ko'rsatish barchamizning muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir!

Sizlarni O'zbek tili bayrami bilan yana bir bor samimiy tabriklayman. Barchangizga sog'lik-omonlik, baxtu saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

O'zbek tilimiz hamisha bezavol yashasin, doimo mag'rur yangrasin!

“Uzbekistan Airways” AJ

Boshqaruvi raisi

Shuxrat Xudaykulov